

Ustoz-shogirdlik

✘ Institutimizda yaxshi an'anaga aylanib ulgurgan ustoz - shogird an'analari barcha talabalar uchun judaham quvonarlidir. Ustozlar va murabbiylar o'z bilim va ko'nikmalarini shogirdlariga ulashishdan charchamaydilar. Professor o'qituvchilar talabalarni chet el grantlari va turli ilmiy ishlarga jalb qilib talabalarning keyingi faoliyatlarida katta ko'nikma hosil qilmoqda.

Shunday o'qituvchilardan biri "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti o'qituvchisi Muxitdinov Djmaliddin Kamaliddinovichdir.

Yaqindagina uztoz bir guruh institutimiz talabalari Suleymanova Munira, Bekjanova Zahro, Jurayeva Matlubaxon, Xikmatullayeva Zarinalar bilan birgalikda Rossiyaning "Internauka" jurnalida o'zlarining "Absolyut nuqta izlovchi zamonaviy geodezik asbob Leica AT930/960" nomli maqolasi bilan ishtirok etishdi. Mazkur jurnal shu yilning 16-iyun kuni chop etildi. Ushbu maqola bu talabalarga o'z ilmiy ishlarini olib borishda ilk qadam bo'lib xizmat qilishiga shubha yo'q.

YRB fakulteti o'qituvchisi O'.P.Islomov axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov.